



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025 йил 15 апрель, № 76 (8971)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



MAJMUAGA TASHRIF BUYURUVCHILAR UCHUN BARCHA QULAYLIK YARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-aprel kuni “Sea Breeze Uzbekistan” xalqaro turizm markazining master-rejasi taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizdagi qulay investitsiya muhiti tufayli barcha sohalarga ilg'or g'oyalar kirib kelmoqda, yangi majmualar barpo etilmoqda. Xususan, turizmda so'nggi yillarda 2 mingdan ortiq yangi tadbirkorlar ish boshladi. O'tgan yili xorijiy sayyohlar tashrifi ilk bor 10 milliondan oshdi. Birgina Toshkent viloyatining Bo'stonliq hududida Amirsoy va “Ugam River” kabi kurortlar, “Beldirsoy – Chimyon – Nanay” turizm maskanlari tashkil etildi.

Bunday rivojlanish sur'ati chet ellik

investorlarni ham o'ziga tortmoqda. Jumladan, Chorvoq suv ombori bo'yida “Sea Breeze Uzbekistan” xalqaro turizm markazi qurilishi haqida avval xabar berilgan edi. Bu galgi taqdimotda ushbu yirik loyihaning bir nechta xorijiy kompaniyalar ishtirokida ishlab chiqilgan master-rejasi ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, turizm markazini 10 ta kichik hududga bo'lib qurish ko'zda tutilmoqda. Ularning har biri piyoda borish mumkin bo'lgan ko'ngilochar maskan va xizmatlarni qamrab oladi. Ikki qirg'oq o'rtasida

ko'prik qurilib, keluvchilarga qulaylik oshiriladi. Suv bo'yida xiyobon, plyaj va dam olish joylari bo'lsa, qiyaliklarda mehmonxonalar, kottejlar, uylar, restoran va tomoshagohlar bo'ladi. Shuningdek, madaniyat, ta'lim, tibbiyot, sport maskanlari barpo etiladi. Ya'ni bu yerda faqat sayohat emas, balki yil davomida yashash imkoniyati ham yaratiladi.

Davlatimiz rahbari bu loyiha barcha tashrif buyuruvchilarga qulay bo'lishi lozimligini ta'kidlab, majmuani zarur infratuzilma bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

SAYYOHLARNI JALB ETISHGA QARATILGAN ISTIQBOLLI LOYIHALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev turizm va bunyodkorlik loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Shu yil 9-aprelda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari yurtimizning boy tarixi va madaniyati, ajoyib tabiatidan foydalanib, sayyohlarni hozirgidan 2-3 karra ko'paytirish mumkinligini ta'kidlagan edi.

Shunday xushmanzara joylardan biri – Bo'stonliqdagi “Chorvoq darvozasi” majmuasi. Prezidentimiz o'tgan yili dekabrda uning qurilishini borib ko'rgan edi, yaqinda loyihaning birinchi bosqichi ochildi. Majmuada 16 ta ko'p qavatli uy, 3 ta mehmonxona, savdo va maishiy xizmat shoxobchalari, kafe va restoranlar, bank ofisi, avtoturargoh bo'ladi. Binolar tepasiga quyosh panellari o'rnatiladi.

Taqdimotda majmuaning keyingi bosqichlarini qurish, sayyohlar uchun jozibadorligini oshirish borasidagi ishlar haqida axborot berildi. Uni arzon va ekologik toza energiya bilan ta'minlash uchun Chirchiq daryosida kichik gidroelektr stansiya barpo etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi.

Yana bir loyiha Toshkent shahrining Yashnobod tumanida okeanarium qurishga qaratilgan. Chirchiq daryosi bo'yida 20 gektarda mo'ljallangan ushbu okeanarium sayyohlarni jalb etadigan yana bir maskan bo'ladi. Yonida savdo-mehmonxona majmuasi ham qurilib, ularda jami 1 ming 600 ta ish o'рни ochiladi.

Shuningdek, Yakkasaroy tumanida turarjoy va ishbilarmonlik maskani barpo etish mo'ljallangan. Unda ko'p qavatli uylar, bog'cha va maktablar, sport va sog'lomlashtirish maskanlari, mehmonxona va savdo ofislari bo'lishi ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz loyihalarning huquqiy, moliyaviy jihatlarini hamda infratuzilma masalalarini har tomonlama o'ylab, chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqish zarurligini ta'kidladi. Mutasaddilarga sifat va muddatni aniq belgilab, bajarilishini nazorat qilish topshirildi.

O'ZA.

Uchrashuv

YEVROPA PARLAMENTI DELEGATSIYASI – SENATDA

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Yevroparlamentning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalar bo'yicha delegatsiyasi raisi Tomash Zdexovskiy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda ikki tomonlama hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari muhokama qilindi. Siyosiy muloqotning yuksak darajasi va parlamentlararo aloqalarning kengayib borishi dinamikasi qayd etildi.

Muloqot chog'ida o'tgan hafta Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi yakunlariga alohida

e'tibor qaratildi. Ta'kidlanganidek, ko'hna qit'aning 18 mamlakatidan delegatsiyalar ishtirok etgani O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganiga yorqin bir dalil bo'ldi. Mamlakatimiz rahbarining xalqaro miqyosda keng aks sado bergan nutqi yuksak baholandi.

Shuningdek, 3-4-aprel kunlari

Samarqand shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tarixda birinchi marotaba bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammiti yakunlari ham ko'rib chiqildi. Erishilgan kelishuvlar, shu jumladan, Toshkent shahrida Yevropa investitsiya bankining mintaqaviy vakolatxonasini ochish muhimligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar Oliy Majlis Senati va Yevropa parlamenti o'rtasidagi parlamentlararo muloqotni yanada chuqurlashtirishdan manfaatdor ekanliklarini tasdiqladi.

“Xalq so'zi”.

Qo'mita yig'ilishi

EKOLOGIK INQIROZ OQIBATLARINI YUMSHATISH BO'YICHA HAMKORLIK MUHOKAMASI

Kecha Oliy Majlis Senatida “O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi” Parlament hamkorligi qo'mitasining 18-majlisi o'tkazildi

Unda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi

o'rtasidagi aloqalar sezilarli darajada faollashdi. Bu jarayonning yorqin ifodasi sifatida 2025-yil 3-4-aprel kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitini keltirish mumkin. Sammit natijalari

ikki mintaqa o'rtasidagi munosabatlarni yangi, strategik darajaga olib chiqqanligi bilan alohida ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Qo'mita majlisida, shuningdek, O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi

iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, o'zaro investitsiya muhitini yaxshilash, shuningdek, ta'lim sohasidagi aloqalarni chuqurlashtirish masalalari muhokama etildi.



O'ZARO ALOQALAR YANADA RIVOJLANADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilovning Yevropa parlamentining Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalar bo'yicha delegatsiyasi raisi T. Zdexovskiy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot avvalida mehmon tomonga “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar, Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi yo'nalishidagi faoliyati, qo'mitalar, komissiyalar, deputatlarning asosiy vazifalari hamda joriy yil 3-4-aprel kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammiti yakunlari bo'yicha batafsil ma'lumotlar berildi.

Delegatsiya rahbari qabul uchun minnatdorlik bildirib, Yevropa Ittifoqi va mintaqa davlatlari ishonchli hamkorlarga aylanayotganini ta'kidladi.

T. Zdexovskiy “O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi” Parlament hamkorligi qo'mitasining 18-yig'ilishi o'tkazilayotgani aprel boshida bo'lib o'tgan “Markaziy

Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammitining mintaqaviy davomi ekanini alohida qayd etdi.

Unga ko'ra mazkur tarixiy voqea mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishdan ikki tomon ham katta siyosiy manfaatdor ekanini tasdiqlaydi hamda ko'p yillik munosabatlardagi yangi bosqichdir.

Shuningdek, u Parlament hamkorligi qo'mitasining 18-yig'ilishi va uning doirasida o'tkazilayotgan uchrashuvlar ikki mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarni yanada rivojlantirish hamda chuqurlashtirishga xizmat qilishini urg'uladi.

Tomonlar parlamentlararo hamkorlikni izchil davom ettirishga kelishib oldi.

“Xalq so'zi”.

INSON MANFAATLARI VA MUTANOSIBLIK TAMOVILI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

Jumladan, **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida Prezidentimiz raisligida shu yil 9-aprel kuni hududlarning turizm salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiya loyihalarini jadallashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining ahamiyati atroflicha muhokama qilindi.

Fraksiya a'zosi Xushvaqt Haitov yig'ilishda belgilab berilgan vazifalar xususida to'xtalar ekan, turizmni yuqori daromadli sohaga aylantirish uchun davlat va xususiy sektordagi ishtirokchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirish hamda mustahkamlash borasidagi vazifalar O'zLiDeP maqsad va g'oyalarga to'liq mos kelishini ta'kidladi.

Videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalar partiya va uning fraksiyasi zimmasiga katta mas'uliyat yuklashi, uning ijrosida barcha deputatlar faol bo'lishi, sohaga doir huquqiy asoslarni takomillashtirish lozimligi urg'ulandi.

Shundan so'ng deputatlar “Sun'iy intellekti qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibiga

solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

Muhokamalar jarayonida fraksiya a'zosi Zafar Xudoyberdiyev qonun loyihasining ahamiyati haqida to'xtalib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalari, takliflarini bildirdi. Qonun tashabbuskorlari bildirilgan fikrlar asosli ekanini qayd etib, u loyihani maromiga yetkazish jarayonida e'tiborga olinishini ma'lum qildi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi sun'iy intellektidan foydalanishni yanada rivojlantirish, turli sohalarga joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish, uni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish, sun'iy intellektidan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlav berish va tarqatishning oldini olishga xizmat qiladi.

Qizg'in muhokamalardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.



O'ZBEKISTONNING TINCHLIKPARVAR SIYOSATI NAMOYON BO'LDI

Poytaxtimizda 5 – 9-aprel kunlari bo'lib o'tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi jahon parlamentarizmidagi o'ziga xos yangi davrni boshlab berdi. Aytish joizki, bu tadbir nafaqat tashkiliy jihatdan, balki O'zbekistonning global miqyosdagi mavqei mustahkamlash, milliy parlamentarizmi rivojlantirishi bilan ham ahamiyatlidir.

E'tirof

Asosiysi, dunyo parlamentlari vakillarini bir yuz elliginchi marta bir nuqtaga birlashtirgan mazkur tadbir yangi O'zbekistonning ochiqligi, uning global muammolarga ishonchli va konstruktiv ta'sir o'tkazish salohiyatiga ega ekanligini namoyon etdi.

Har bir davlatning milliy parlamentarizmi rivojlantirishi faqat huquqiy hujjatlar qabul qilish yoki qonunlar ishlab chiqish bilan o'lchanmaydi.



YEVROPAGA RAVON YO'L OCHGAN TADBIR

Samarqandda o'tgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitini kuzatar ekanman, boshqaruv tizimida ishlagan 25 yil davomida o'zim ishtirok etgan yoki shaxsan guvoh bo'lgan tadbirlar bir-bir ko'z o'ngimdan o'tdi, xotiralarimni bugungi voqelik bilan taqqosladim.

Mulohaza

Shu o'rinda dastlab yodimga kelgani – Yevropa davlatlari vakillari qatnashadigan tadbirlar yoki ular bilan uchrashuvlarga tayyorgarlik jarayonlarida takror va takror uqitiriladigan “Yevropa bilan aloqalarda o'ta ehtiyoj bo'lish kerak”, “Ularning beg'araz yordamida ham manfaat bor”, “Ular bizga do'st emas” kabi “eslatma”lar bo'ldi. Ular qulog'imizga singib ketgan edi. Tadbir boshlangach esa eng qizig'i boshlanardi – garchi martabasi unchalik baland bo'lmasa-da, mehmon falon raqamni yoki falon so'zni aytishi kerak degan tashvish bilan hamma ovora edi. Qisqasi, mehmonning O'zbekistonga nisbatan biror iliq so'z aytishi uchun atrofida hammamiz “girdikapalak” bo'lardik. Yakunda esa asl holatdan xabardor bo'lgan vakil yozib berilgan matnni xohlab-xohlamay o'qib ketavereydi. Eng



BARQAROR TARAQQIYOTNING YANGI IMKONIYATLARI

Samarqand shahrida oliy darajada tashkil etilgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammiti doirasida o'tkazilgan ochiq, konstruktiv va samarali uchrashuvlar mamlakatlarimiz va mintaqalar manfaatini ta'minlashda sheriklik va amaliy hamkorlikni chuqurlashtirishga bo'lgan siyosiy iroda va qat'iyatni yana bir bor namoyon etdi, desak, ayni haqiqat. Binobarin Markaziy Osiyodagi chuqur transformatsiya jarayonlari ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga va dunyodagi yirik aktorlarning mintaqamizga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Nuqtai nazar

Markaziy Osiyoning ochiqligi va sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka tayyor ekani tufayli dunyo e'tibori yana mintaqamizga yuzlandi. Davlatlar, hamjamiyatlar mintaqamizga yaxlit organizm sifatida qaray boshladi. Mamlakatimiz rahbari “Euronews”ga bergan intervyyusida ta'kidlab o'tganidek, “...shu tarzda, Markaziy Osiyo endi tarixning chetida emas, balki o'z strategik kun tartibini shakllantirayotgan, jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylanmoqda. Siyosiy iroda, yuqori darajadagi o'zaro ishonch va qo'shma iqtisodiy tashabbuslar



YEVROPAGA RAVON YOʻL OCHGAN TADBIR

➡ Mening diqqatimni tortgani Ursula fon der Lyayenning *“Bu hamkorlik Yevropa Ittifoqiga ishonishingiz mumkinligini koʻrsatadi. Birgalikda ishlash orqali biz har ikki mintaqamiz uchun ham manfaatli boʻlgan yaqinroq munosabatlarni rivojlantirishimiz mumkin”*, degan soʻzlari boʻldi. Bu gaplar Oʻzbekiston Prezidentining bugun olib borayotgan ochiqlik siyosati bilan hamohangdir.

“Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti yakunida ikki mintaqa oʻrtasida strategik sheriklik oʻrnatishni nazarda tutuvchi Qoʻshma deklaratsiya qabul qilindi. Bu hujjatda aks etgan hamkorlik yoʻnalishlari tez oʻzgarib borayotgan hozirgi zamonda oʻta muhim.

Tan olish kerak, biz bir paytlar yaxshigina moddiy texnik baza va iqtidorli kadrlarga ega boʻlgan togʻ-kon sanoati va geologiya tarmoqini saqlab qola olmadik. Shu bois ushbu tarmoq salohiyatidan toʻlaqonli foydalana olmayapmiz. Charaqlab turgan quyoshimiz bitmas-tuganmas energiya manbai ekanini bilmadik. Aniqrogʻi, ilimimiz, tajribamiz yetmadi, ilmiy salohiyatimiz asta-sekin yoʻqotildi. Al-Xorazmiy avlodlari boʻla turib, raqamlashtirish yoʻnalishida kadr tayyorlash borasida rivojlangan davlatlardagi yangiliklarni oʻrganishga intilmadik. Muhandis kadrlarni yetarli darajada tayyorlamadik,



tayyorlangan kadrlar ham bugungi texnologik jarayonlardan ayro holda diplomli boʻlishdi. Eng achinarlisi – tadbirkorlik tugʻilmay toʻsiqqa uchradi, iqtisodiyotdagi ulushi 50 foizdan ziyod boʻlgan kichik va oʻrta biznes himoyasiz qoldi. Biz yaqin oʻtmishda duch kelgan ayrim muammolarni esladik, xolos. Afsuski, ularning soni koʻp edi.

Tadbirkorlarning muammolaridan bevosita xabardor boʻlgan Shavkat Mirziyoyev ularni davlat tomonidan kafolatli yoʻlga qoʻydi. Bir qator qonunlar, Farmon va qarorlar qabul qilindi. Natijada tadbirkor bilan davlat oʻrtasidagi toʻsiq bartaraf etildi.

Navbatdagi vazifa global miqyosdagi toʻsiqlarni olib tashlash uchun dunyo hamjamiyatining boshini qoʻshishdan iborat.

Shu oʻrinda, Prezidentimizning *“Bugun bozor topish mashaqqat,*

raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish esa undan-da mushkul”, “Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga nisbatan “yashil” energiya talabining qoʻyilishiga oz muddat qoldi. Bugun sohaga ilm bilan yondashmasak, ertaga kech boʻladi”, deya takror-takror taʼkidlagani bejiz emasligini oʻylab qolaman. Binobarin, Qoʻshma

butun xalqimizning sayyoramiz ahliga yurak hayrigirigʻ boʻlib yangradi, desak, ayni haqiqat.

Maʼlumki, iqtisodiyot davlat qoʻllab-quvvatlovizis rivojlanmaydi. Bugun Prezidentimiz qaysi davlatga bormasin, shu mamlakat tadbirkorlari bilan bevosita muloqot qilmoqda. Natijada yirik

“*Ayni paytda Toshkent viloyatida 40 dan ortiq davlatlardan kiritilgan sarmoyalar ishtirokidagi 1773 ta korxona faoliyat yuritadi. Investitsiyalarning umumiy hajmi esa 4,5 milliard dollardan oshadi. Ahamiyatlisi, bu korxonalarning 900 dan ortigʻi yoki 52 foizi soʻnggi 6 yilda tashkil etilgan, kiritilgan investitsiyalarning 4,4 milliard dollari yoki 99 foizi ham shu davrga toʻgʻri keladi. Yuqoridagi raqamlarning oʻziyoq Oʻzbekiston iqtisodiyoti qay vaqtda ochiqlikka yuz tutib, xorijiy investorlarda Oʻzbekistonga nisbatan ishonch qachon paydo boʻlganini koʻrsatib turibdi.*”

deklaratsiya bandlarida aks etgan kelishuvlar Oʻzbekiston va butun Markaziy Osiyo iqtisodiyoti rivojiga toʻsiq boʻlayotgan omillarni bartaraf qilish orqali tadbirkorlikning global darajada qoʻllab-quvvatlanishiga qaratilgan.

Oʻzbekiston liderining mazkur forumdagi chiqishida *“Vazifamiz – kelajak avlodlar xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha choralarni koʻrish”,* degan soʻzlari

kompaniyalar Oʻzbekistonning, aniqrogʻi, uning rahbarining ochiqlik siyosatiga ishongan holda kirib kelmoqda.

Ayni paytda Toshkent viloyatida 40 dan ortiq davlatlardan kiritilgan sarmoyalar ishtirokidagi 1773 ta korxona faoliyat yuritadi. Investitsiyalarning umumiy hajmi esa 4,5 milliard dollardan oshadi. Ahamiyatlisi, bu korxonalarning 900 dan ortigʻi yoki 52 foizi soʻnggi

6 yilda tashkil etilgan, kiritilgan investitsiyalarning 4,4 milliard dollari yoki 99 foizi ham shu davrga toʻgʻri keladi. Yuqoridagi raqamlarning oʻziyoq Oʻzbekiston iqtisodiyoti qay vaqtda ochiqlikka yuz tutib, xorijiy investorlarda Oʻzbekistonga nisbatan ishonch qachon paydo boʻlganini koʻrsatib turibdi.

Sammitdagi yana bir tarixiy kelishuv Oʻzbekistonda Yevropa kengashining mintaqaviy ofisi ochilishi boʻldi. Endi mablagʻ yonimizda, 12 milliard yevro miqdoridagi sarmoya naqd. Qaysidir davlatga borib eshigini taqillatib kutib oʻtirish davri oʻtdi. Kutishga ketadigan vaqtimizni loyihalarni ishlab chiqishga sarflasak manfaatliroq boʻladi.

Anjumanni kuzatar ekanman, viloyat rahbari sifatida men olgan saboq shu boʻldiki, investitsiya sohasidagi faoliyatimizni toʻliq tanqidiy koʻrib chiqib, yondashuvimizni oʻzgartirishimiz shart. Barcha boʻgʻindagi hokimlar va masʼullar davlatimiz rahbaridan ibrat olib, oddiy ijrochi yoki kuzatuvchidan tadbirkorning madadkoriga, joiz boʻlsa, xizmatchisiga aylanishi talab qilinadi. Zero, yangi Oʻzbekistonga bugun dunyo bagʻini ochmoqda.

Zoyir MIRZAYEV,
Toshkent viloyati hokimi,
senator.

BARQAROR TARAQQIYOTNING YANGI IMKONIYATLARI



➡ Natijada mamlakatimiz va Yevropa Ittifoqi oʻrtasidagi iqtisodiy hamkorlikda ijobiy surʼat kuzatilmoqda. Yevropa kapitali ishtirokidagi mingdan ortiq korxonalar faoliyat yuritayotgani, investitsiya loyihalari hajmi esa 30 mlrd. yevroga yetgani yevropalik hamkorlarning Oʻzbekistonga ishonchi ortganidan dalolat beradi. Shu yil davlatimiz rahbarining Bryusselga kutilayotgan tashrifi chogʻida Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisida bitim imzolaniishi moʻljallanyaptiki, bu savdo-investitsiya aloqalarini yanada chuqurlashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochishi, shubhasiz.

Taʼkidlash joizki, iqtisodiy bogʻliqlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun savdo tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, Markaziy Osiyo mahsulotlarining Yevropa bozoriga kirish imkoniyatini yaxshilash, texnik standartlar va sertifikatlarni uygʻunlashtirish zarur. Ayni chogʻda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, raqamli iqtisodiyot va innovatsion hamkorlikni rivojlantirish jarayoniga Yevropa biznesini faol jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Bu borada Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki va boshqa xalqaro moliya institutlari orqali moliyaviy koʻmak mexanizmlarini faollashtirish lozim. Joriy yilning iyunida YTTB bilan sheriklikda Toshkent xalqaro investitsiya forumini oʻtkazish rejalashtirilgan boʻlib, unda Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari bilan umumiy qiymati 30 mlrd. yevrodan ortiq joriy loyihalar portfelini taqdim etish kutilayotir. Bu esa yurtimizda kichik va oʻrta biznes rivoji uchun qulay sharoitlar yaratish, qoʻshimcha minglab ish oʻrinlari barpo qilish, mintaqa iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligini oshirishning kafolati boʻladi.

Qolaversa, shu kunlarda Toshkentda Yevropa investitsiya banki ofisini ochish toʻgʻrisida imzolangan bitim Yevropa mamlakatlaridan Markaziy Osiyoga toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar oqimini ragʻbatlantiradi. Yevropalik sheriklar Oʻzbekiston yetakchisining yana bir tashabbusi – “yashil” energetika, innovatsiyalar, transport, infratuzilma sohalarda va agrar sektorda yirik mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun Investitsiya platformasini ishga tushirish boʻyicha taklifini qoʻllab-quvvatladi.

Bundan tashqari, mamlakatlarimizning iqtisodiy manfaatlarini yaqinlashtirish boʻyicha qator yangi takliflar bildirildi. Bu, eng avvalo, investitsiyalarni himoya qilish va ragʻbatlantirish

toʻgʻrisidagi koʻp tomonlama bitimni imzolash, xususiyl sektor vakillarini keng jalb etgan holda, “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” qoʻshma savdo palatasini ishga tushirish, kichik va oʻrta biznes loyihalarini, birinchi galda, xotin-qizlar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha qoʻshma mintaqaviy dasturlarni qabul qilishga qaratilgan.

Sammit davomida strategik mineral resurslar boʻyicha hamkorlik va investitsiyalarni chuqurlashtirish yuzasidan qaror qabul qilining ham eʼtiborga molik masalalardan boʻldi. Taʼkidlash kerakki, Oʻzbekiston geologiya-razvedka, strategik xomashyo materiallari konlarini oʻzlashtirish va ularni chuqur qayta ishlash yoʻnalishida yuqori texnologik ishlab chiqarish tarmoqlarini yaratish borasida Yevropadagi yetakchi kompaniyalar bilan hamkorlik qilish boʻyicha katta ijobiy tajribaga

Transkaspiy transport koridorini kengaytirish va yuk bilan taʼminlash uchun oʻzaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni va biznes uchun manfaatli sharoitlarni ishlab chiqish zaruratga aylanib bormoqda. Shu bois Prezidentimiz kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqish uchun Yevropa Ittifoqi shafeligida ushbu yoʻnalishda joylashgan mamlakatlarning transport vazirlari uchrashuvini chaqirishni taklif etdi.

Oʻzbekistonning, xususan, Markaziy Osiyoning Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarda “yashil” energetika va ekologik barqarorlikka yoʻnaltirilgan investitsiyalar strategik ahamiyatga ega boʻlib bormoqda. Oʻzbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidan Yevropaga elektr energiyasini yetkazib berish boʻyicha xalqaro loyihani toʻliq qoʻllab-quvvatlaydi. Sammit arafasida ushbu loyihani

“*Oʻzbekistonda izchillik bilan qulay biznes imkoniyatlari yaratilmoqda, bozor institutlari rivojlanmoqda, investitsiya muhiti yaxshilanmoqda. Xorijiy investorlar uchun “yagona darcha” tizimi joriy etilgan, valyuta bozori liberallashtirildi. Natijada mamlakatimiz va Yevropa Ittifoqi oʻrtasidagi iqtisodiy hamkorlikda ijobiy surʼat kuzatilmoqda.*”

ega. Oʻzbekiston bu yoʻnalishda YI bilan oʻzaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirishni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash niyatida. 2050-yilgacha iqlim boʻyicha neytrallikka erishish va strategik sektorlarda oʻz mustaqilligini mustahkamlashga intilayotgan YI uchun toza energiya va noyob mineralarga ega boʻlish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo zaminida jahondagi marganes rudasi zaxirasining 38,6 foizi, xromning – 30,07, qoʻrgʻoshinning – 20, ruxning 12,6 foizi mavjud. Bu xomashyo resurslari kelajak global iqtisodiyoti uchun hayotiy manbadir. Ammo ayni paytda ular global oʻyinchilarni ham jalb qiladi, ularning baʼzilari faqatgina foydalanish va qazib olishdan manfaatdor.

“Markaziy Osiyo – qadimiy tarixga va katta ambitsiyalarga ega boʻlgan gʻururli va mustaqil davlatlar mintaqasi... Biz sizning mahalliy sanoatni rivojlantirishdagi sheriklaringiz boʻlishni ham xohlaymiz. Qoʻshimcha qiymat mahalliy boʻlishi kerak. Bizning ishlash tajribamiz buning guvohidir”, dedi Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen. Demak, Yevropa xomashyoni olib ketish emas, balki toʻliq qiymat zanjirini yaratish, yaʼni qazib olishdan qayta ishlash va qayta tiklashgacha boʻlgan jarayonni shakllantirishni maqsad qiladi. Bu esa mahalliy ish oʻrinlari yaratish, yuqori ekologik va ijtimoiy standartni taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo ushbu mahsulotlarni, shuningdek, tayyor sanoat va qishloq xoʻjaligi tovarlarini Yevropa bozorlariga yetkazib berish uchun samarali transport yoʻlaklarining yoʻqligi bunda asosiy toʻsiq hisoblanadi. Jumladan,

amalga oshirish boʻyicha bitim ratifikatsiya qilindi.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyo mamlakatlari ishtirokida amalga oshirilayotgan Kaspiy va Qora dengiz orqali Yevropaga “yashil strategik yoʻlak” barpo etish loyihasida hamkorlik uchun ulkan salohiyat mavjud. Ushbu loyihaing amalga oshirilishi oʻzaro manfaatli energetik bogʻliqlikning mustahkam asosini yaratadi. Ayni paytda Oʻzbekiston va mintaqadagi boshqa davlatlar qayta tiklanuvchi energetika salohiyatini faol kengaytirmoqda. Masalan, faoliyat yuritayotgan 14 ta quyosh va shamol elektr stansiyasiga qoʻshimcha ravishda Oʻzbekiston umumiy quvvati 24 ming megavatt boʻlgan 50 dan ortiq shunday loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan. Yaqin besh yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bunda Yevropa investitsiyalari va texnologiyalarining oʻrni katta. Mazkur maqsadlarga erishish “issiqxona gazlari” chiqishini qariyb 16 mln. tonnaga qisqartiradi va Oʻzbekistonning Parij bitimi doirasida “issiqxona gazlari” chiqindisini 35 foizga kamaytirish boʻyicha oʻz zimmasiga olgan majburiyatini muddatidan oldin bajarishga imkon tugʻiladi.

Yana bir muhim yoʻnalish – energetika tizimlari modernizatsiyasida Yevropa Ittifoqi ishtirokini kengaytirish boʻlib, bu anʼanaviy uglerod chiqindilari koʻrsatkichini kamaytirishga xizmat qiladi. YI ayni jarayonni “Global Gateway” investitsiya strategiyasi orqali qoʻllab-quvvatlaydi. Yangi investitsiya paketi doirasida “Team Europe” tashabbusi boʻyicha suv, energiya va iqlim oʻzgarishiga oid yirik

qoʻshimcha mablagʻlar ajratilishi hamda “yashil” loyihalariga yanada koʻproq sarmoya yoʻnaltirilishi eʼlon qilangani tufayli Markaziy Osiyo toza energiya markaziga aylanishi mumkin. Bu nafaqat importga bogʻliqlikni kamaytiradi, balki ulkan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

YI bilan hamkorlikda madaniy-gumanitar sohalaridagi loyihalar mintaqamizni yaqinlashtirish yoʻlidagi eng istiqbolli hisoblanadi. Xususan, inson kapitaliga investitsiyalar taʼlim va madaniy-gumanitar sohalaridagi almashinuylarni kengaytirish imkonini beradi. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash boʻyicha “Erasmus+” dasturlari doirasida mintaqa mamlakatlari uchun maxsus kvotalarni joriy etish ushbu maqsadga erishishga xizmat qilishi mumkin. Kezi kelganda aytilish joizki, oxirgi oʻn yilda mazkur dastur doirasida 10 ming talaba va mutaxassis qatnashdi. Endi “yashil” va raqamli oʻzgarishlar hamkorlik markazida turibdi. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ilmiy-taʼlim hamkorligini kengaytirish uchun Oʻzbekiston “Ufq – Yevropa” dasturi ofisini ochishga tayyorligini maʼlum qildi. Bundan tashqari, sunʼiy intellekt, maʼlumotlar “katta bazalari”, raqamlashtirish, kosmik tadqiqotlar sohasida ilmiy va texnologik almashinuylar boʻyicha qoʻshma dasturni ishlab chiqish taklif etildi.

Oʻzbekiston, shuningdek, mintaqa mamlakatlarini raqamli taʼlim sohasida Yevropa harakatlar dasturiga qoʻshish, yetakchi universitetlar oʻrtasida sheriklik borasida “Yoʻl xaritasi”ni amalga oshirish boʻyicha tashabbuslarni ilgari surdi. Madaniy aloqalar xususida soʻz borganda, yevropalik mutaxassislari ishtirokida “Lazgi” milliy baletning sahnalashtirilishi madaniyat sohasidagi kooperatsiyaning yaqqol misoli boʻldi. Yevropadagi Luvr, Berlin Yangi muzeyi, Vena Butunjahon muzeyida Markaziy Osiyoning tarixiy merosiga bagʻishlangan koʻrgazmalar muvaffaqiyatli oʻtkazildi. Taʼkidlash joizki, joriy yilning kuzida Samarqandda oʻtadigan, yaʼni soʻnggi qir qir yilda Parijdan tashqarida ilk bor uyushtiriladigan YUNESKO Bosh konferensiyasi chogʻida mintaqamiz xalqlarining boy madaniyati va sanʼati bilan yanada keng tanishtirish imkoniyati tugʻiladi. Joriy yilda Buxoroda oʻtkaziladigan ilk “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sayyohlik forumi xususida ham shunday deyish mumkin.

Xullas, “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti koʻhna qitʼa bilan munosabatlarni mustahkamlashning yangi imkoniyatlarini ochib berdi. Biz uchun asosiy xulosa shundan iboratki, Markaziy Osiyo endi bir butun mintaqa sifatida qabul qilinmoqda va bu sammit Yevropa Ittifoqi uchun ham muhim tadbir. U Bryusselning “Global Gateway” strategiyasiga yanada keng yoʻl ochish imkoniyatini berishi kutilayapti.

Sadriddin TUROBJONOV,
Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat
texnika universiteti rektori,
texnika fanlari doktori, akademik.

15-aprel – Oʻzbekiston Respublikasi madaniyat va sanʼat xodimlari kuni

MEHR-EʼTIBOR VA ISHONCH IFODASI

Mana, toʻrt yildirki, mamlakatimizda 15-aprel sanasi – Oʻzbekiston Respublikasi madaniyat va sanʼat xodimlari kuni sifatida keng nishonlanib, soha vakillariga yuksak ishonch va ruh bagʻishlab kelmoqda.

Qayd etish joizki, xalqimiz madaniyati va sanʼatini rivojlantirish, har tomonlama boyitish, uning maʼnaviy poydevorini mustahkamlash, soha xodimlariga imkoniyat va yengilliklar yaratish yangi Oʻzbekiston tanlagan yoʻlining muhim yoʻnalishlaridan biridir. Zero, madaniyat va sanʼati yuksak xalqning oʻtmishiga monand ravishda buguni va kelajagi ham goʻzal boʻladi.

Quyida biz fikr-mulohazalarini yozib olgan yurtdoshlarimiz fikrlari ham aynan shu haqda.

Gavhar MATYOQUBOVA,
Oʻzbekiston xalq artisti, “El-yurt hurmati” ordeni
sohibasi, professor, tarixshunos olim, baletmeyster:

– Madaniyat, sanʼat va ijod... Bu soʻzlar zamiroda inson qalбини joʻshqinlantiruvchi, ruhini oʻstiruvchi, hayotiga oʻzgacha maʼno-mazmun baxsh etuvchi qandaydir sirli va moʻjizaviy kuch bor. Albatta, har qanday kuch insonlarni faqat va faqat ezigulikka boshlasagina, u nurafshon kelajak uchun xizmat qiladi.

Shu maʼnoda, madaniyat va sanʼat ahlining, ijodkor ziyolilarimizning qalbi ezigulikka toʻla ekaniga va uni faqat xayrli ishlar uchun amalga oshirishga hozirligiga shubha yoʻq. Zero, bugun Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda madaniyatimiz, milliy qadriyat va maʼnaviyatimiz, bebaho sanʼatimizni asrab-avaylash, yanada rivojlantirish yoʻlida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yurtimiz boʻylab har yili Madaniyat va sanʼat xodimlari kuni keng nishonlanishi biz kabi sanʼat fidoyilari, kasbdoshlarimiz, xususan, ushbu sohaga mehri baland



yoshlarga ruh bagʻishlamokda.

Sanʼat yoʻli bir qadar shonli, bir qadar zahmatli va bir qadar masʼuliyatli... Bu haqda oʻylasam, beixtiyor xotiramda oʻtgan asming 60-yillari ustoz Komiljon Otaniyozov boshchiligidagi Xorazm ansambli, uning poytaxtga ilk safari jonlanadi. U paytlar sanʼat ostonasida qimtinib turgan, yuragi ulkan orzularga toʻla navnoli edim. Ustozlar va doʻstlar koʻmagi bilan kamol topdim, sanʼatda oʻz oʻrnimga ega boʻldim, qanchadan-qancha shogirdlar tarbiyaladim. Sanʼat yoʻlini tanlaganimdan hech qachon afsuslanmayman. Chunki u menga millionlab pulga ham sotib olib boʻlmaydigan mukofot – xalq mehriy muhabbati, ardogʻini armugʻon etdi.

Alisher ALIQULOV,
Oʻzbekiston Respublikasi sanʼat arbobi, professor,
akademik, rassom:

– 2021-yil 7-iyun kuni “Oʻzbekiston Respublikasi madaniyat va sanʼat xodimlari kunini belgilash toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga koʻchgan ushbu tarixiy voqeik mamlakatimizda inson qadriga yuksak eʼtibor qaratilayotganining yana bir amaliy ifodasi boʻldi. Kasb bayramimizning keng nishonlanishi biz uchun qator imkoniyatlar eshigini ochdi, yuragimizga ishonch, ruhimgiza ruh qoʻshdi, zamonaviy tilda aytganda, motivatsiya bagʻishladi.

Ijodkor nimadan ruhanladi? Unga berilgan zararcha eʼtibor, oʻzgina mehr va siylovdan, albatta. Ochigʻini aytсам, davlatimiz rahbarining sohaga gʻamxoʻrligi, madaniyat va sanʼat xodimlari haqida har gal kuyunib, ayrica ehtirom bilan gapirishi zamiroda bularning bari jam boʻlgan.

Necha yildirki, sanʼatning rang tasvir yoʻnalishida ijod qilib, devorlarga tarixiy suratlar ishlab kelaman. Taʼkidlash joizki, har qanday sanʼat uni qoʻllab-



quvvatlovchilar, homiylarga muhtoj. Kimningdir sizga bergan oʻzgina dastagi ulkan ishlarga yoʻl ochishi mumkin. Rassomlar ham bugungi kundagi eʼtibordan shukuhga toʻlib, xalqimizning milliyligini, uning naqadar boy va goʻzalligini jahon ahliga koʻrsata olishiga ishonchim komil.

Mutafakkirlardan biri “Sanʼat – chinakam sanʼat boʻlsa va eng avvalo, kim uchun yaratilgan boʻlsa, oʻshalarga xizmat qilishi lozim”, degan ekan. Shu maʼnoda, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar zaminida xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodni qadriyatlarimizga yaqinlashtirish va tarbiyalash maqsadi muassam. Bu yoʻlda biz ham bor salohiyatimizni namoyon etib, millatimiz oʻzligini dunyoga tarannum qilish, sanʼat orqali qalblarga kirib borishda kamarbasta boʻlamiz.

Hamid MIRSAGATOV,
Oʻzbekiston Badiiy akademiyasi aʼzosi, miniatyura
sanʼati ustasi:

– Ochigʻi, madaniyat va sanʼat xodimlarini davrimizning qahramonlari degim keladi. Nimaga deysizmi? Dunyoda, baʼzi mamlakatlarda roʻy berayotgan talatoʻplar, urushlarga eʼtibor bering. Menimcha, yovuzlik, avvalo, sanʼatni sevmaydigan odamlar qalbidan ilid otadi, oʻsib, yon-atrofiga ham taʼsir oʻtkazadi.

Endi esa har lahzasi sanʼat va goʻzalliklar bilan toʻlib borayotgan jonajon yurtimizga bir nazar soling. Bularning barchasi madaniyat va sanʼatga eʼtibor ulkanligi, mehr qaynoqligi va biz kabi soha vakillariga ishonch yuksakligidan, albatta.

Bolaligimda uygʻongan qiziqish bugun meni xalqimiz tanigan mohir usta, koʻplab shogirdlar ustoziga aylantirdi. Adashmasam, 8 yoki 9-sinfda oʻqirdim, oʻshanda rassomchilik toʻgaragiga qatnashar, oʻzimdagi yashirin qobiliyatni kashf etgandim. Mana, bugun oʻsha paytda tashlangan qadamlar kaminaga ulkan yutuqlar olib keldi. Ijod mening hayotim, olgan nafasim,



desam, adashmayman. Qariyb 30 yil boʻldiki, undan bir lahza boʻlsin, ayro tushganim yoʻq. Soʻnggi yillarda biz kabi ustalar faoliyati yanada jonlandi. Yashirmayman, bir paytlar bizga taqiqlar, cheklanishlar koʻp edi. Natijada ishimiz yurishmas, qoʻlimiz ishga bormasdi. Bugun esa mehnatimiz mahsulini koʻrgazmaga qoʻyishimiz, sotishimiz, elimizga taqdim etishimiz mumkin.

Mana shunday erkinlik, qulay muhit va shart-sharoitlardan unumli foydalanish endi bizning burchimiz. Kasb bayramimiz quvonch ulashish bilan birga, har birimizga ana shu masʼuliyatni ham eslatib turadi.

Rahmatjon BOBOJONOV
(“Xalq soʻzi”) yozib oʻldi.

MAMLAKAT BO‘YLAB

YANGILIKLAR, VOQEALAR, TAFSILOTLAR

Zamondosh

aytib bo‘linganday... Odamzodga zabon bitibdiki, yaxshi so‘zlarining bari onalar poyida. Ishonmasangiz, uch ming yoshli “Avesto”ni qo‘lga oling. Muqaddas ma‘budaning fazilatlarida ona va onalikning barcha fazilatu xislatlari jamlangan. Vafo ramzi, nazokat, latofat, nafosat timsoli, mehru muhabbat qo‘rg‘oni, sabru qanoat sohibi, Yaratganning buyuk mo‘jizasi...



Ayol haqida yozishga to‘g‘ri kelsa, ulug‘lovchi birov yangi gap aytish niyatida har doim tunlar tongga ulanadi. Go‘yoki, barchasi takror, allaqachon

El nazarida yurishning mas‘uliyati yuksak. Aslida, umr deb ataganimizni bezashga qodir kunlar, xislatlar va nihoyat oddiygina aytganda, hayot tarzi kishini bunday ehtirom pog‘onasiga ko‘tarishi mumkin. Binobarin, bunda kasb yoki lavozimning ahamiyati yo‘q.

– 1976-yili tumanimizdagi 27-maktabni tugatdim, – deydi Ra‘no Valiyeva. – O‘sha paytlar maktablarda mexanizatorlik kurslari bo‘lardi. Menga ham shu kursni tugallagan mutaxassis

– Xo‘jaligimizning mehnatkash a‘zosi, soddagina ayol, doktorlar sarson qilmasin, deb chidab turolmadim. O‘g‘liyam ko‘z o‘ngimizda ulg‘ayib kelaypti.

– 1976-yili tumanimizdagi 27-maktabni tugatdim, – deydi Ra‘no Valiyeva. – O‘sha paytlar maktablarda mexanizatorlik kurslari bo‘lardi. Menga ham shu kursni tugallagan mutaxassis

SHUNDAY YASHAR ODATDA AYOL...

Qiziltepa tumanidagi “Valiobod” fermer xo‘jaligining rahbari Ra‘no Valiyeva qariyb qirq besh yildiki, yer bilan tillashadi. Ayollik baxtiyu mehnatdan topgan saodatining siri bilan qiziqib qahramonimiz suhbatini oldik. Opa muddaomizni eshitib “Mahallamizdagi oltinchi sinf o‘quvchisining to‘satdan mazasi qochib qoldi. Tuman kasalxonasiga olib ketyapman, erta-indin uchrashsak yoki to‘g‘ri shifoxonaga kelsangiz...” dedi.

Ra‘no opa bilan ikki kun o‘tib uchrashdik. Tabiiyki, dastlab yigitchaning ahvolini so‘radik.

– Tuzuk, o‘ziga keldi, – dedi fermer bolaning onasi tomonga ishora qilib.

sifatida shahodat qog‘ozi berishdi. Va 1982-yilgacha mexanizatorlik qildim. 1987-yili Toshkent qishloq xo‘jaligi institutini tamomlab, agronom mutaxassisligi bilan yana O‘rtacho‘lga qaytdim.

Cho‘ini o‘zlashtirishda o‘sha yillar dabbababozlik avjiga chiqqan. Birov ko‘chib keladi, kimdir ko‘chib ketadi, yerga zarracha mehr yo‘q. Hosildorlikka emas, cho‘lida falon so‘m o‘zlashtirildi, degan ko‘rsatkichlarga e‘tibor qaratiladigan zamon edi. Qisqacha aytganda, mablag‘, so‘zsiz-so‘roqsiz texnika ajratilardi, natijaning esa tayini yo‘q – paxtadan 10, g‘alladan 18 – 20 sentner hosil olinib, butun tumanni

o‘tgan “Moskvich” olsa bo‘lardi, xolos. – O‘zbekistonimiz tuprog‘i shunday saxovatlikni, zaminga mehr bersak, kuchimizni ayamasak, albatta, u samarasini ko‘rsatadi, ne‘matlarini to‘kib sochadi, – deydi R. Valiyeva. – Peshonang teri bu yerga o‘g‘it bo‘lishi kerak.

O‘rtacho‘l dastlabki yillarda paxtayu g‘allaning nozini ko‘tarmadi, keyinchalik haqiqiy egasiga tushgach dehqonchilikdagi uquv, bilakdagi kuchning zarbi bilan paxta tugul tropik mevalarga ham ko‘ngil berdi. Sho‘r yuvildi, zovurlar qazilib, zax qochirildi. Natijada hosildorlik paxtadan 50, g‘alladan 65 – 70 sentnerga qadar

yetkazildi.

Bugun fermerning o‘ndan oshiq texnika hamda ulovlari bor. Daromad buromad bobida gapirsak, o‘zidan ortibdiki, O‘rtacho‘ldagi maktabni homiylikka ham olgan. Unib-o‘sgan qishlog‘i Toshabatga toza ichimlik suvi keltirish, besh kilometrdan ortiq ko‘chaga asfalt yotqizish, mahalla binosini to‘liq ta‘mirlashga bosh-qosh.

Ra‘no opa Navoiy viloyatida ayollardan birinchi bo‘lib ko‘ksiga senatorlik nishonini taqqan. Vakolati allaqachon tugagan bo‘lsa-da, elning ishonchi tufayli halovatdan kechib, ko‘pning tashvishini baham ko‘radi. Maqolamiz avvaldagi holat shulardan biri. Odatda, ayol shunday yashaydi. Onalik mehri ko‘ksiga sig‘maydi. Shundan halovat topadi.

Kezi kelganda ta‘kidlash joiz, mamlakatimizda dehqon mehnatiga ko‘rsatilgan rag‘bat, fermerlik harakatining har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi oddiy insonlarning intilishlarini yuzaga chiqarib, jamiyatda o‘z o‘rni, mavqeliga ega bo‘lishiga xizmat qildi. Ularning faol fuqarolik pozitsiyasi esa yurt ma‘murchiligi, el farovonligida o‘z aksini topib bormoqda.

Ra‘no Valiyevaning ko‘p yillik mehnati munosib baholanib, davlatimizning yuksak mukofoti – “Elyurt hurmati” ordeni bilan taqdirlandi. “Intilganga tole yor”, deydi xalqimiz. Zero, intilish zamirida matonat, sabru qanoat va fidoyilik kabi tushunchalar ham mujassamki, bunday xislat sohiblariga baxt ham peshvoz chiqadi.

Temur ESHBOYEV
("Xalq so‘zi").



Qo‘lda kashta tikish an‘anasi o‘zbek xonadonlarida azaldan bo‘lgan. Har bir oila bekasi zaruriyat emas, ma‘naviy zavq olish uchun kashta tikkan, desak, xato bo‘lmaydi.

KASBIDAN E‘ZOZ TOPGAN KASHTADO‘ZLAR

Samarqandlik Shoira G‘aniyeva mohir kashtado‘zlar sulolasining ishini davom ettirib kelayotgan hunarmandlardan. U bolaligidan kashtado‘zlikka qiziqadi. Ipak matolarga tabiiy bo‘yoqlar yordamida gul bosish bilan shug‘ullanadi. Uning ijodiy ishlari YUNESKO tomonidan “Butunjahon sifat belgisi” sertifikatiga bilan taqdirlangan. “Shuhrat” medali sohibasi hamdir.

– Kashta tikishni buvim va onamdan o‘rganganman. Keyinchalik bu hunar sevimli kasbimga aylandi,

bozorlarga chiqarish uchun imkoniyat yaratdi. Hozir yuzlab shogirdlarim bor. Ularga xalqaro miqyosda tan olingan hunarmandchilik ishlarini o‘rgatib kelmoqdaman.

Nurobod tumanining Ittifoq mahallasida istiqomat qiluvchi Sojida Yo‘ldosheva ham usta hunarmandlarning ishidan ilhomlandi. Uning tikuvchiligi oddiy ko‘ylak yo ko‘rpa-to‘shak tikishdan farq qiladi. Mahsulotlariga talab yuqori – mamlakatimiz, qo‘shni respublikalar, Rossiya va hatto



– deydi Sh. G‘aniyeva. – Tanlovlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritib, seminarlar doirasida mahorat darslari o‘tyapman. Mubolag‘a bo‘lmasinu dunyoning barcha qit‘asida shogirdlarim bor. O‘n yil davomida sulolamiz va o‘zimizning ishlarini kitob holiga keltirdim. Bu to‘plam bo‘ljak hunarmandlar uchun qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Shoiraning atrofida xotini-qizlar kashta tikishni biladi. Qizlari yettinchi, nabiralari sakkizinchi avlod bo‘lib, mahoratini boshqalarga ham o‘rgatib kelmoqda. Urgutlik kashtado‘z Qurbonoy Turdiyeva ham mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilgan hunarmandlar ko‘rgazmalarida Shoir G‘aniyevaning ijodiy ishlaridan zavqlanib, o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yg‘an. U yaratgan mahsulotlar nafaqat mamlakatimiz, balki xorijda ham e‘tirof etilmoqda.

– 2014-yilda respublika “Hunarmand” uyushmasiga a‘zo bo‘ldim, – deydi mohir kashtado‘z Qurbonoy Turdiyeva. – Bu mahsulotlarimizni milliy va xalqaro

okeanortidan ham u tikkan mahsulotlarni so‘rab kelishadi.

– 2022-yilda 5 million so‘m kredit olib, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatimni yo‘lga qo‘ygandim, – deydi Sojida Yo‘ldosheva. – Tikuvchilikka qo‘shimcha quroq yostiqdagi tikishni boshladim. Keyin beshik yopinchilari, chimidliq, dasturxon, umuman, xonadonlarga kerakli bo‘lgan mahsulotlarni tikishni yo‘lga qo‘ydik. Ijtimoiy tarmoqlarda “Sojida quroqlari” nomi bilan kanal ochdim, qolaversa, quroq buyumlarni tikishni onlayn o‘rgatishni ham yo‘lga qo‘ydim. Turlari viloyatlardan quroq ko‘rpacha va boshqa buyumlarga buyurtmalar tushdi. Buyurtmalarni pochta orqali tarqatamiz. Hozir faoliyatimizni kengaytirish uchun ko‘shimcha joy tanlaymiz, chunki buyurtma ko‘p, tikuvchilar kam.

Niyatimiz – qadimiy tikish usullarini, noyob naqshlarni asrab-avaylovchi qo‘lguv hunarmand ayollarimiz safi yanada kengaysin!

Abdulaziz YO‘LDOSHEV
("Xalq so‘zi").

TOG‘LARNI VELKASIDA KO‘TARGAN QISHLOQ

Surxondaryo viloyati o‘zining boy tarixi va go‘zal tabiati bilan mashhur. Xususan, Sariosiyo tumanidagi Sangardak qishlog‘i betakror manzaralari va muqaddas qadamjolari bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qilmoqda.

Bir o‘lkaki...

Darhaqiqat, tog‘lar bag‘rida joylashgan bu qishloq Sangardak darasi va sharsharasi, rang-barang o‘simlik va hayvonot dunyosi, buloq va chashmalari bilan mashhur. Dengiz sathidan 2000 metr balandlikdan tushadigan sharshara tabiatning betakror mo‘jizasi. Kamalak misoli tovlanib oqayotgan suv bahridilingizni ochib, xushkayfiyat bag‘ishlaydi.

Sangardak daryosi tepasidagi tog‘ ustida Xo‘jai ilg‘or ziyoratgohi joylashgan. Uning nomi “Xo‘jai pesh”, “Xo‘jai baland”, “Xo‘jai ustun”, deb ham ataladi. Qabr tog‘ning tepasida bo‘lib, ustiga bir xonali chog‘roqqina xonaqoh qurilgan. 2019-yilda ziyoratgoh “Vaqf” xayriya fondi Surxondaryo bo‘limi tasarrufiga o‘tkazilib, xonaqoh oldiga 1 080 ta zina barpo etilgan. Bu maskan yuz faslida ziyoratchilar bilan gavjum bo‘ladi. Qiya tog‘ bag‘ridan sizib chiqadigan tortta buloq suvi shifobaxsh xususiyatiga ega.

– Keyingi yillarda Sangardak qishlog‘i yanada ko‘rkam va o‘bod maskanga aylanadi, – deydi “Sangardak” MFY raisi O‘rozboy Mirzayev. – Tog‘ qo‘ynida keng yo‘llar barpo etilib, sayyohlar uchun zarur sharoit yaratildi. Masjid, oshxona va boshqa xizmat ko‘rsatish shoxobchalari qurildi. Bitta mehmonxona, yigirmadan ortiq mehmon uylari tashkil etildi. Tog‘ bag‘rida yetti qavatli muhtasham “Sangardak” sanatoriysi qad rostladi. “Sangardak chevarlari” tikuvchilik korxonasi ishga tushirilib, ko‘plab xotin-qizlar bandligi ta‘minlandi. Shu kunlarda qishlog‘imiz bilan Qashqadaryoni bog‘laydigan yangi avtomobil yo‘li ishga tushirilish arafasida. Bu yo‘l poytaxtdan sayyohlarning Sangardakka kelishini 4-5 soatga qisqartiradi.

Sangardak turizm qishlog‘i maqomiga ega. Bu mahalliy aholining turizmdan daromad topishiga qulay muhitni yaratmoqda. Prezidentimizning 2024-yil 16-dekabrda “Surxondaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini

yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori vohaning turistik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Qarorga muvofiq, Sariosiyo tumanidagi Sangardak, Boysun tumanidagi Omonxona turizm qishloqlari hamda Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Oqtqepa” suv omborining qirg‘oq bo‘yida “Obihayot” turistik markazlari bunyod etish ishlari boshlab yuborildi.

– Mazkur qaror ijrosi doirasida 2025 – 2027-yillarda ushbu hududlarda mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, xizmat ko‘rsatish majmualari, dam olish maskanlarini qurish uchun bo‘sh yer uchastkalari 10 yil muddatda teng ulushlarda to‘lash sharti bilan elektron onlayn auktsion savdogacha chiqarilmoqda, – deydi viloyat hokimi o‘rinbosari Jo‘rabek To‘rayev. – Loyiha 945,5 gektar maydonda amalga oshiriladi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, loyihalar ijrosi uchun 1 trn. 604 mld. so‘mdan ko‘p mablag‘ sarflanishi ko‘zda tutilgan. Ularning yillik ishlab chiqarish samaradorligi 50,5 mln. dollarni tashkil etib, 753 kishining bandligi ta‘minlanadi. Sangardak qishlog‘i hududida 1,8 kilometri dor yo‘li barpo etiladi. Bundan tashqari, xizmat ko‘rsatish majmualari va turizm infratuzilmasi obyektlari, jumladan, mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, sog‘lomlashtirish, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish inshootlari, sanatoriya va xalqaro umummavsumiy kurort zona tashkil etiladi. Uning loyiha qiymati 887,7 mld. so‘m. Ushbu maqsadlar amalga ohsa, 400 dan ortiq kishilarning doimiy bandligi ta‘minlanadi.

Bugun mamlakatimizning eng olis va chekka hududi Sariosiyo tumani ham ulkan bunyodkorlik maydoniga aylanagan. “Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal” deganlaridek, Sangardak qishlog‘iga keling, bunga o‘zingiz amin bo‘lasiz.

Farhod ESONOV
("Xalq so‘zi”).

“Dolzarb bir oylik”:

AHOLI MUAMMOLARI O‘Z YECHIMINI TOPMOQDA

Yurtimizda “Dolzarb bir oylik” safarbarligi doirasida aholining turmush tarzini yanada yaxshilash, hayot farovonligini oshirish, bandlikni ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibori qaratilayotir.

Obod mahallam

Ayni shu maqsadda Prezident Administratsiyasi, Xalq qabulxonalari, qator vazirlik va idoralar rahbarlari hamda mas‘ul vakillardan tashkil topgan Respublika ishchi guruhi o‘z faoliyatini Toshkent shahrida davom ettirdi.

Dastlab ishchi guruh Toshkent shahar hokimligi bilan hamkorlikda poytaxtning har bir tumaniga mas‘ullar birliktirgan holda bunyodkorlik, o‘bodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlarini va muammolarni joylarga chiqqan holda mahallabay o‘rganib, ularni bartaraf etish bo‘yicha salmoqli ishlarni amalga oshirdi.

Xususan, fuqarolar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotlarda aniqlangan muammolar yechimi bo‘yicha ko‘rilgan choralarining natijadorligini oshirish, mavjud muammolarni hal etish maqsadida poytaxt tumanlarida yuzga yaqin sayyor qabullar o‘tkazildi. Ularda ko‘tarilgan 1,3 mingga yaqin masalalardan 345 tasi ijobiy hal etildi. Muayyan vaqt hamda mablag‘ talab qiladigan masalalar bo‘yicha aniq davr va ijro muddatlari belgilanib, nazoratga olindi.

Qabul davomida kelib tushgan murojaatlar asosida poytaxt tumanlarining ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilash yo‘lida 390 ming kvadrat metrga yaqin ichki yo‘llar, 30 ming kvadrat metrga yaqin markaziy ko‘chalar mukammal hamda joriy ta‘mirlandi. Asfalt-

beton qoplamasi yotqizilib, 20 kilometrga yaqin temir-beton novlar va 30 kilometrdan ziyod yo‘l to‘siqlari ta‘mirdan chiqarildi.

Bundan tashqari, elektr energiya ta‘minotini yaxshilash uchun yuzga yaqin eski simyog‘ochlar beton ustunlarga almashtirildi, kabel tarmoqlari tortildi. Yangi transformatorlar o‘rnatilib, 200 dan ziyodi joriy va mukammal ta‘mirlandi. Ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tarmoqlari yaxshilandi. Shu bilan birga, shahar ijtimoiy infratuzilma obyektlarini zamonaviy talab darajasiga olib chiqish uchun 20 dan ziyod bolalar bog‘chalari, maktab, shifoxona hamda poliklinikalar ta‘mirlanib foydalanishga topshirildi.

Aholi istiqomat qilayotgan 90 ga yaqin ko‘p qavatli uylardagi kamchiliklar bartaraf etildi. Jumladan, 4 ta uyning fasad qismi, 25 ta uyning yem‘tolari hamda 36 ta uyning to‘rtlari ta‘mirlandi, yangi lift uskunalari o‘rnatildi.

Ishchi guruh vakillari boshchiligida “Dolzarb bir oylik” safarbarligi doirasida poytaxtning barcha mahallasida 2 mingdan ziyod turli bayram tadbirlari, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan og‘ir mahallalarda arzonlashtirilgan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hamda mehnat yarmakalari tashkil etildi.

Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari tizimli va manzilli uyushirilishi natijasida ijtimoiy shoha obyektlari atrofi ko‘rkamlashtirildi, 3 mingga yaqin ko‘chalar chiqindidan tozalandi, 120 dan ortiq qabriston (ziyoratgoh)lar o‘bod qilindi.

Ma‘lumki, shu kunlarda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida poytaxt hududlarida ko‘chat ekish ishlari tashkil etilyapti. Ushbu xayrli amallar doirasida ham 600 mingdan ziyod turli mevali va manzarali ko‘chatlar ekildi.

Respublika ishchi guruhi faoliyatini davom ettirmoqda.

“Xalq so‘zi”.

HAYOTDA BOR, HUIJJATDA YO‘Q...

Har yili sentyabr oyining boshlarida millionlab bolalar maktabga boradi. Ammo maktabga qabul qilinmaydiganlar haqida nima deyish mumkin? Ular aslida mavjud, ammo tug‘ilish dalilini tasdiqlovchi hujjatlari yo‘q. Bu otalarning mas‘uliyatsizligimi yoki amaldorlarning befarqligini?

Huquq va burch

– Bolaning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasi – bu davlat bilan huquqiy munosabatlarga kirishga imkon beradigan “kalit”. Shu hujjat orqali bola teng huquqli fuqaro maqomini oladi, – deydi Andijon shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish byurosi rahbari G‘ofirjon Salomov. – Bu “kalit” bo‘lmasa, bolalar “ko‘rinmas odam”larga aylanadi. Ularning mavjudligini hech kim bilmaydi. 2024-yilda Andijon shahrida xuddi shunday yashovchi 168 nafar kishiga tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma topshirdik. Afsuski, ular tug‘ilganida ro‘yxatga olish choralari ko‘rilmag‘an. Bu ularning shu paytgacha rasman mavjud emasligini anglatadi.

Savol tug‘iladi: nega ushbu yurtdoshlarimizning tug‘ilganligi o‘z vaqtida qayd etilmagan? Yurtimizda ushbu hujjatlarisiz yana qancha kishi yashaydi? Hokimiyat nuqtayi nazari va qonunga ko‘ra ular shunchaki mavjud emas. Tushunaysizmi, shaxsni tasdiqlovchi hujjatsiz bolalar bog‘cha yoki maktabga borolmaydi. Qolaversa, tibbiy yordam va boshqa muhim xizmatlardan mahrum. Keyinchalik ishga joylashib, ijtimoiy nafaqa ololmaydi. Ularning ekspluatatsiya va zo‘ravonlik qurboniga aylanish xavfi yuqorilgini nazarda tutsak, muammo ko‘lami yanada chigallashadi.

Bolani yashirishga sabab nima?

Farzand tug‘ilganligi haqida guvohnoma olish uchun hujjatlar yig‘ish ko‘p vaqt talab qilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2013-yil 31-dekabrda qabul qilingan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida yangi yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaning 59-bandiga ko‘ra o‘n olti yoshgacha bo‘lgan bolaga hujjat olish uchun FHDYO organiga tug‘ilishni qayd etish muddatini o‘tkazib yuborganlik sabablari ko‘rsatilgan bir qancha hujjatlar taqdim etilishi kerak. Bular – ariza, bolaning tug‘ilganligi haqida tibbiy ma‘lumotnoma yoki tug‘uruxxonadan tashqari joyda va tibbiy yordamsiz tug‘ilganligini tasdiqlovchi dalolatnoma, sog‘lig‘i va ta‘lim olayotgini to‘g‘risida, tegishli FHDYO arxividan ushbu bolaga nisbatan tug‘ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi qayd etilmagan to‘g‘risida ma‘lumotnomalar.

Tajribadan ko‘rinadiki, qalqaloqning mavjudligini tasdiqlovchi hujjatning yo‘qolishi, ya‘ni otalarning mas‘uliyatsizligi kelajakda bolalar hayotini jiddiy ravishda murakkablashtiradi. Kam ta‘minlangan uzoq uzoq tog‘li va qishloq joylardagi oilalar farzandlari ko‘pincha ro‘yxatdan o‘tmagan bo‘lib chiqadi. Albatta, qonun uy sharoitida tug‘ishni taqiqlamaydi. Tibbiy tashkilotdan tashqarida tug‘ilganidan qat‘i nazar

– qay holatda bo‘lmasin, go‘dakning tug‘ilganligini tegishli idoralarda qayd ettirish muhim. Vaholanki, biz bunga aqli yetmaydigan darajadagi huquqiy bilimimiz past, ongimiz mavjudot emasniq. Ammo bunga otalarning befarqligi, e‘tiborsizligi yoki mas‘uliyatsizligi sabab bo‘lgan taqdirda ham mahallaga birliktirilgan hamshiralar bunday holatga befarq bo‘lmasligi kerak emasmi? Taqdir taqozosi bilan go‘dak uyda, mehmonxonada yoki safarda tug‘ildi ham deylik, bu haqda tegishli idoralarga xabar berish birinchi galda ularning vazifasi emasmi? Ko‘z o‘ngida voyaga yetayotgan o‘g‘il yoki qizga huquqiy imkoniyatlari cheklanganligini eslatish bilan kifoyalangan mahalla faollari muammoning ijobiy yechimini ta‘minlashni o‘z vakolatlari doirasidagi vazifa, deb qabul qilishi kerakmasmi?

Ochig‘i, fuqaro sifatida qayd etilmaslik davlatga ham bir qancha muammolar tug‘diradi. Shunday ekan, otalarning farzandi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi va himoya qilinishi uchun u qonuniy huquqidan mosuvo etilmasligi kerak.

“Bu hayotda borligimni isbotlolmay yashadim...”

– Tug‘ilganimda, rasman hech joyda ro‘yxatga olinmaganman, – deydi Andijon shahrida istiqomat qiluvchi To‘lanboy Obloqulov. – Ota-onam uydan uzoqqa ketishimga ruxsat berishmasdi. Chunki tug‘ilganimni tasdiqlovchi guvohnomam yo‘q edi. Dastlab bog‘chaga borolmadim, keyinchalik hujjatlarim bo‘lmagani uchun maktabgayam chiqmadim. Yillar davomida guvohnomasiiz bankda hisob ochish, pasport olish, ovoz berish yoki

hatto ishga joylashishda ham muammolarga duch kelaverdim. Uylanib, farzandli bo‘lganimdan keyin bu muammo oilam uchun ham tashvish tug‘dirdi. Kam ta‘minlanganlar toifasiga mansub bo‘lganim bilan mahalladan yordam so‘rolmadim. Noliq, fuqarolik holatimni tiklash bo‘yicha tegishli idoralarga murojaat qildim. Endi menda o‘z shaxsiy guvohnoma bor – O‘zbekiston fuqarosiman. Hamma qatori teng huquqliman, barcha fuqaro uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan to‘liq foydalana olaman...

Bir muddat dunyoga kelganini isbotlay olmay yashagan To‘lanboyga o‘xshagan yurtdoshlarimizning huquqlari tiklangani quvonarli, albatta. Ammo bunday holatlarga yo‘l qo‘yilmasligi, ularni zudlik bilan hal qilish mumkin edi-ku. Bunda agar tug‘ilish tibbiy tashkilotdan tashqarida bo‘lganida ham tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomani berishdan bosh tortmaslik yoki uni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratish muhim. Chunki tug‘ilgan bola shaxsini tasdiqlovchi hujjatga muhtoj bo‘ladi. Faqat tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomagina fuqaroning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlaydi.

Bolaning huquqlari o‘zaro bog‘liq va bo‘linmasdir. Bu yerda, albatta, ularni buzgan shaxslar javobgar bo‘ladi. Shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilishda mas‘ul davlat organlari – sog‘liqni saqlash, maktabgacha ta‘lim, xalq ta‘limi, huquqni muhofaza qilish va sud organlari, bolalar manfaatlarini ko‘zlab ishlaydigan nodavlat tashkilotlar ham jonbozlik ko‘rsatsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adiba UMIROVA,
Saminjon HUSANOV
("Xalq so‘zi”).

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan “O‘quvchi – yugur” loyihasi amalga oshirilmoqda.

Xalq so‘zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma‘lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e‘lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullig‘a qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyrga kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas‘ul.

Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni – 20.49 Topshirildi – 00.05 **1 2 3 4 5 6**